



O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYA LOYIHALARI SAMARASINI OSHIRISHDA INVESTITSIYA MUHITINI YAXSHILASH YO'LLARI

Valiyeva Sayyora Xushbaqovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Soliqlar va soliqlar tortish" kafedrasida katta o'qituvchisi

s.valiyeva@tsue.uz

ARTICLE INFORMATION	ABSTRACT
Volume: 1 Issue: 6 DOI: https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss6/a7	Ushbu maqolada qulay investitsiya muhitini shakllantirish, investitsiya siyosati va maqsadlari, mazmun-mohiyati, investitsion muhit jozibadorligini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari, investitsiya loyihalari samarasini oshirishda investitsiya muhitini rivojlantirish omillari, va O'zbekistonda investitsiya samaradorligini oshirish zaruriyati asoslangan. Milliy iqtisodiyotimizda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi, shuningdek hududlar investitsiya salohiyatiga oid ilmiy qarashlar ochib berilgan. <i>Investitsiya loyihasi, investitsiya resurslari, investitsiya samaradorligi, loyiha tahlili, investitsiya siyosati, investitsiya muhiti, investitsiyon jozibadorlik, investitsion potentsiali, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, yalpi ichki mahsulot.</i>
KEYWORDS	

Kirish

Dunyo mamlakatlarida investitsiya resurslarini jalb qilish mexanizmini takomillashtirish, ularning istiqbolli tarmoqlarga kirishini rag'batlantirish va ulardan samarali foydalanishda investitsiya loyihalari sifatini oshirish muammolari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish kengaymoqda. Chunki oxirgi o'n yilda jahon iqtisodiyotidagi nobarqarorlik, turli tahdidlarning saqlanib qolayotganligi, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda o'sish sur'atlarining pasayishi dunyoda investitsiyalarni jalb qilish va loyihalar samarasini oshirishda muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu holat mazkur sohani ilmiy jihatdan o'rganish va tadqiq qilishni taqozo etmoqda.

O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va raqobatdoshligini kuchaytirishda investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish ustuvor yo'nalish sifatida tanlangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistondagi taraqqiyot strategiyasida ham iqtisodiyotga investitsiyalarni faol jalb qilish bo'yicha aniq vazifalar belgilangan. Unga ko'ra "mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish sharoitida kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish" vazifasi alohida belgilab berildi [1].

Mamlakatimizda "investitsiya loyihalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholashni samarali tashkil etishda qator muammolar mavjudligi investitsion jarayonlarning faollashuviga, yirik obyektlar barpo etilishiga, investitsiyalardan foydalanish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Jumladan, investitsiya loyihalarining texnik-iqtisodiy asosnomasi puxta tayyorlanmasligi, loyiha bo'yicha marketing tadqiqotlarining haqqoniy olib borilmasligi, loyiha bo'yicha risklarni oldindan aniqlash va hisoblash uslubiyotning mukammal emasligidir" [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Korxonaning investitsion salohiyati to'g'risida Sh.V.Mustafaqulov tomonidan quyidagicha ta'rif berilgan, ya'ni "Korxonaning investitsion potentsiali - korxona faoliyatining samaradorligidan ko'ra ko'prok uning imkoniyat darajasini ko'rsatuvchi resurslar ma'nosida tushunilishi lozim", shuningdek, "Investitsion potentsial korxona faoliyatining samaradorligi

emas, balki uning imkoniyatlarini belgilovchi investitsiya resurslari demakdir" [3]. Demak, har qanday loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun investitsion resurslar zarur bo'ladi. Ammo buning o'zi yetarli emas, zarur resurslarga ega bo'lish bilan birga, ulardan samarali foydalana olish ham lozim.

E.R.Semirenkoning fikricha "investitsiya faoliyati - ma'lum bir hisobot-yilida uzoq muddatli aktivlarni va boshqa investitsiya loyihalarini sotib olish hamda sotishni bildiradi". "Korxonada hisobot davrida qilingan investitsiya faoliyati ma'lum bir jarayonda yo'naltirilgan jami investitsiya daromadlari va xarajatlari to'g'risida ma'lumot beradi" [4].

Z.Bodi va A.Keynlar fikriga ko'ra "investitsiya faoliyati - bu korxonalarning pul oqimlari to'g'risidagi hisobotida ko'rsatiladigan sof pul oqimlarining asosiy yo'nalishlaridir". "Shuningdek, investitsiya faoliyati - hisobot davrining ma'lum bir qismida uzoq muddatli aktivlar va boshqa investitsiya loyihalarini sotish va sotib olishni anglatadi" [5]. A.Nasreddinning talqinicha "investitsiya faoliyati - korxona biznesini rivojlantirish va uzoq muddatda uning foydasini olish bilan bog'liq bo'lgan tadbirkorlik faoliyatidir. U uzoq muddatli aktivlar va boshqa investitsiyalarni sotish hamda sotib olishni nazarda tutadi" [6]. Investitsiya loyihasining iqtisodiy samaradorligi - bu investitsiya loyihasi ishtirokchilarining maqsadlari va manfaatlariga muvofiqligini aks ettiruvchi toifadur.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/методы). Tadqiqotni amalga oshirishda qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirishda mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish, iqtisodiy-statistik tahlil, o'zaro va qiyosiy taqqoslash usullaridan samarali foydalanildi.


Olingan natijalar (Results/Результаты). Olib borilgan tahlillar natijasida mamlakatda qulay investitsiya muhitini shakllantirish investitsiya siyosati va mintaqaning investitsion jozibadorligini boshqarish tizimining samarali ishlashining asosiy sabablaridan biri ekanligi va ko'rib chiqilgan tadbirlar majmuini amalga oshirish iqtisodiyotni sarmoyaviy jihatdan jozibador qilishi mumkinligi bu esa, o'z navbatida, milliy budjet samaradorligini oshirishga olib kelishi asoslab berilgan.

Tahlillar (Analysis/Анализ). Mamlakatda tabiiy-mineral resurslarning mavjudligi o'z-o'zidan xorijiy investitsiyalarning barqaror oqimini, ayniqsa, iqtisodiyotning noxomashyo sektoriga kafolatlay olmaydi. Bunda davlat institutlarining samaradorligi, bank sektorining rivojlanganligi, iqtisodiyotning erkinligi, makroiqtisodiy barqarorlikning yuqori darajasi kabi omillar muhim rol o'ynaydi. Hozirda jahon iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan zamonaviy davlat boshqaruvi usullari avvalgi an'anaviy boshqaruv usullaridan o'zining tuzilma va jarayonlarining soddaligi, tarkibiy elementlarining moslashuvchanligi va mustaqilligi, jarayonlarni xarajatlar asosida emas, balki natijalar asosida baholash, buyruqbozlikdan voz kechish, moddiy resurslardan ko'ra inson omili resurslariga ko'proq urg'u berish, tashqi omillarni ham hisobga olish, iste'molchilarga asosiy e'tiborni qaratish kabi o'ziga xos tamoyillari bilan ajralib turadi.

Qulay investitsiya muhitini shakllantirish investitsiya siyosati va mintaqaning investitsion jozibadorligini boshqarish tizimining samarali ishlashining asosiy sabablaridan biridir.

Tumanlar va shaharlarning loyiha guruhlari ishonib topshirilgan hududning salohiyatini to'playdi va tahlil qiladi, mahalliy tadbirkorlarga loyiha buyurtmalarini tayyorlashda yordam beradi, ular o'z navbatida viloyat darajasiga – loyiha ofislariga topshiriladi.

Har bir mintaqaning investitsiya muhitini boshqasidan aniq ajratib ko'rsatishni hisoblashda investitsiyalarning sanoat va tarkibiy ko'rsatkichlaridan foydalanish, turli xil investitsiya manbalarining mintaqadagi investitsiyalar hajmiga ta'sirini baholash va mintaqaga sarmoya kiritish sohasidagi raqobat muhiti to'g'risida xulosalar chiqarish, yo'qotishlarni "kutish" ta'siridan kelib chiqadigan xavflarning ta'sirini tenglashtirish ishlarini yaxshilash lozim. U investitsiya muhitini yaxshilashda uchta baholash mezonidan quyidagi mintaqaviy investitsiyalarning iqtisodiy, vazn xususiyatlari, shuningdek, ularni moliyalashtirish manbalarining tarkibiy ko'rsatkichlari foydalanishini o'z ichiga oladi (1-rasm).




1-rasm. Investitsion muhit jozibadorligini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari [7]

Investitsiya muhiti darajasi asosiy yo'nalishlar bo'yicha umumlashtiruvchi baholashlar to'plami bilan belgilanadi. Ular o'z navbatida har bir yo'nalish doirasidagi cheklangan miqdordagi xususiy ko'rsatkichlar va parametrlar bo'yicha baholashdan iborat bo'ladi. Investitsion muhit tushunchasining ko'p omilliligiga asoslanib, quyida investitsiya muhitini yaxshilashning tarkibiy modeli keltirib o'tildi (2-rasm).

Mamlakatimizda moliya bozorining iqtisodiyotda juda kam ulushni tashkil etishi va iqtisodiyotimizning monetizatsiya darajasining pastligi qimmatli qog'ozlar, valyuta va kapital bozorlarini rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlarni keskin kuchaytirish zaruratini tug'diradi. Mazkur keng ko'lamli islohotlarning boshlanishiga esa mamlakatimizda aksiyalar paketida davlat egalik qilayotgan aksiyadorlik birlashmalarining boshqaruv tizimidagi yondashuvlarni o'zgartirish asosida iqtisodiyotda korporativ boshqaruvi rivojlantirish orqali turtki berish zarur.

Xorij tajribasini chuqur o'rgangan holda aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati strategik boshqaruvi ta'minlashda aksiyadorlar, shu jumladan, minoritar aksiyadorlarning rolini ko'tarish, korporativ boshqaruv sohasida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, qimmatli qog'ozlar bozori, ayniqsa, ikkilamchi bozorni yanada rivojlantirish va uning axborot-texnik bazasini mustahkamlash alohida ahamiyatga egadir.



2-rasm. Investitsiya loyihalari samarasini oshirishda investitsiya muhitini rivojlantirish omillari[8]

Hozirgi kunda mamlakatimizda investitsiya muhiti holatini davlat boshqaruvi tizimining faoliyat yo'nalishlaridan biri, uni sezilarli darajada yaxshilash va muammolarni bartaraf etish yo'llarini, maqsadli modellarni joriy etishdir. Maqsadli model – bu investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiya muhitini yaxshilashga yuqori darajada ta'sir ko'rsatadigan asosiy omil uchun majburiy maqsadlar to'plamidir.

Maqsadli modellarni joriy etishning asosiy tamoyillariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- yuqori natijaga erishishni ta'minlash – loyihani amalga oshirishda rejalashtirilgan samaraga erishishga olib kelishi va maqsadli ko'rsatkichlarni baholash asosida tekshirilishi zarur;
- shaxsiy javobgarlik – loyihani amalga oshirish natijalari va muddatlari uchun alohida mansabdor shaxslarning javobgarligini nazorat qilish hamda rag'batlantirish choralari qo'llash bilan;
- samaradorlik – manfaatdor davlat organlari va tashkilotlari harakatlarini muvofiqlashtirishning maxsus mexanizmlarini qo'llash orqali erishish;
- tizimlilik – maqsadli modellarni joriy etish bo'yicha maxsus "yo'l xaritalari" ishlab chiqish va amalga oshirishga kompleks yondashuv, maqsadlarga erishish uchun barcha zarur chora-tadbirlarni hisobga olishni tahlil qilish va tekshirish.

Mamlakatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirishda zamonaviy aloqa tarmoqlari va elektron axborot almashuvini rivojlantirish orqali bojxonada amalga oshiriladigan operatsiyalarni soddalashtirish, zamonaviy logistika tarmoqlarini shakllantirish bilan eksport-importda foydalaniladigan transport harajatlarni qisqartirish, bojxona xodimlari salohiyatini oshirish yordamida norasmiy to'lovlarni tarqalishiga yo'l qo'ymaslik, konvertatsiya, sertifikatlash va markirovkalashni qulaylashtirish, eksport tovarlari uchun oldindan to'lov qabul qilish majburiyatini yengillashtirish kabi tadbirlarni kuchaytirish dardor.

Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya resurslari samaradorligini oshirishda investitsiya muhitini yaxshilashga yuqori darajada ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillar bo'yicha maqsadli modellarni, jumladan:

- qurilish va hududiy rejalashtirish uchun ruxsat olish;
- yer uchastkalari va ko'chmas mulk obyektlariga mulk huquqini ro'yxatdan o'tkazish;
- yer uchastkalari va ko'chmas mulk obyektining kadastr qiymatini hisoblash;
- mintaq subyektlarida nazorat faoliyatini amalga oshirish;
- kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash;
- investorlarni himoya qilish va investitsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari to'g'risida qonunchilik sifatini yaxshilash;
- investorlar va mahalliy hokimiyat organlarining to'g'ridan-to'g'ri aloqa yo'nalishlari va faoliyati samaradorligi;
- investitsiyalarni jalb qilish va investorlar bilan ishlash bo'yicha ixtisoslashtirilgan tashkilot faoliyatining samaradorligi.

1-jadval

Milliy iqtisodiyotimizda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi[9].
(mlrd. so'm)

Hududlar	Yillar					2022-yilda, 2018-yilga nisbatan o'zgarishi (+,-)
	2018	2019	2020	2021	2022	
O'zbekiston Respublikasi	124231,3	195927,3	210195,1	239552,6	266240,0	142008,7
Qoraqalpog'iston Respublikasi	6757,8	8750,6	7089,8	8110,7	10254,0	3496,2
Andijon	4711,9	7452,1	9622,6	11176,6	14339,8	9627,9
Buxoro	9610,9	10366,6	12183,9	20528,3	21638,3	12027,4
Jizzax	3606,3	7900,9	12545,4	9233,6	10373,9	6767,6
Qashqadaryo	16518,5	24462,5	20557,6	17359,1	16012,8	-505,7
Navoiy	10579,5	17646,3	15688,4	15020,1	17958,1	7378,6
Namangan	8158,1	12084,9	12007,2	12982,0	14775,1	6617,0
Samarqand	7061,4	10266,7	14656,4	15641,6	18917,1	11855,7
Surxondaryo	7240,6	11835,1	10068,2	12037,8	11569,4	4328,8
Sirdaryo	2699,3	5869,1	7191,9	8051,8	12354,6	9655,3
Toshkent	11226,9	20353,9	21148,6	28113,6	35767,7	24540,8
Farg'ona	5539,1	8685,4	11040,0	12625,2	15419,3	9880,2
Xorazm	3013,8	5032,0	5391,8	8292,0	8769,7	5755,9
Toshkent shahri	26435,7	42458,1	50371,3	58172,7	56847,9	30412,2

investitsiya resurslarining iqtisodiy samaradorligi holatini turli ko'rsatkichlar asosida baholash muhimdir. Nafaqat investitsiyalar hajmini, balki ularning sifati, yo'nalishi va foydalanish samaradorligini ham hisobga olish muhimdir.

Yuqorida keltirilgan 1-jadvalga ko'ra milliy iqtisodiyotimizga asosiy kapitalga jalb qilingan investitsiyalar 2022-yilda 2018-yilga nisbatan 142008,7 mlrd. so'mga ko'paygan. Xususan, ushbu holatni hududlar kesimida solishtirganda yuqori ko'rsatkichni Toshkent shahrida 2022-yilda 2018-yilga nisbatan 30412,2 mlrd. so'mga oshgan. Undan keying o'rinda Toshkent viloyatida 24540,8 mlrd. so'mga hamda Buxoro viloyatida 12027,4 mlrd. so'mga ko'payganligini kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, asosiy kapitalga jalb qilingan investitsiyalar eng kam jalb qilingan hududlar jumlasiga Qashqadaryo viloyatida 505,7 mlrd. so'mga kamaygan. Qoraqalpog'iston Respublikasida esa 3496,2 mlrd. so'mni tashkil etgan.

Asosiy kapitalni moliyalashtirish tamoyillari odatda korxonaning uzoq muddatli barqarorligi va rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan. Asosiy kapitalni moliyalashtirishning odatiy usullari aktsiyalarni chiqarish, qarz olish, xalqaro kreditlar va investitsiyalarni o'z ichiga oladi va daromadni qayta investitsiya qilish uchun ishlatadi.

Maqola bo'yicha xulosa va takliflar (Conclusions/Заключения).

1. Davlat investitsiya dasturlarini amalga oshirishning iqtisodiy samaradorligini har tomonlama baholash investitsiya dasturlari mas'ul ijrochilarining ushbu dasturlar samaradorligini baholashni jadal ravishda amalga oshirilishini ta'minlaydi.

2. Ishlab chiqarish omillarining maqbul strategiyasini aniqlashni hisobga olgan holda investitsiya loyihalari samaradorligini baholash investitsiya xavfni kamaytiradi hamda loyihalarni amalga oshirish yuzasidan iqtisodiy asoslangan qaror qabul qilishga zamin yaratadi, chunki: birinchidan, investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash mezonlarini va eng maqbul loyihani asoslash usullarini tanlash mumkin bo'ladi. Ikkinchidan, Investitsion resurslar - ilmiy va texnologik taraqqiyotning rivojlantiruvchisi hisoblanadi. Qo'shimcha kapital qo'yilmalar hisobiga mehnat unumdorligining oshishi hamda boshqa resurslarni tejashga erishishga imkoniyat tug'iladi.

3. Shu bilan birga, mavjud cheklovlar sharoitida investitsiya loyihasini baholash loyihalar samaradorligining ko'plab mezonlari mavjudligi ko'p mezonli tanlovning qisqartirilishiga olib kelishi mumkin. Investitsiya loyihalari samaradorligi ko'rsatkichlarini hisoblashning aniqlangan xususiyatlari va qonuniyatlaridan foydalanish investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash mezonlarini va loyihani asoslash uchun tegishli hisoblash usullarini mustaqil ravishda tanlashga zamin yaratadi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni // <https://lex.uz/docs/5841063>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasi.
3. Mustafaqulov Sh.E. Investitsion muhit jozibadorligi. Monografiya. T.: Iqtisod-moliya, 2017-yil 67-68-betlar.
4. Е.П.Семиренко. "Инвестиционная деятельность" учебное пособие. 2013 г. С -213. Москва.

-
5. З.Боди, А.Кейн. “Инвестиционная деятельность” учебное пособие для студентов высших учебных заведений. 2018 год. Беларуссия.
 6. А.Насреддин. “Инвестиции и инвестиционная деятельность” учебное пособие для студентов высших учебных заведений. 2019 год. Индия.
 7. Valiyeva S.X. “O'zbekistonda investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini takomillashtirish” (PhD) dissertatsiya. 2023-yil.
 8. Valiyeva S.X. “O'zbekistonda investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini takomillashtirish” (PhD) dissertatsiya. 2023-yil.
 9. <https://stat.uz/uz/sayti/ma'lumotlari/asosida/muallif/tomonidan/tuzildi...>